XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 20 - iyul VI-53-76-3-53-K/22 Forish tuman hokimligi

Forish tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlash va yangi nom berish to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2022-yil 18-martdagi 01-14-367-sonli yig‘ilish bayoni va xulosasini ko‘rib chiqib va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Forish tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 11-apreldagi 01-14-511-sonli yig‘ilish bayoni va xulosasi maqullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 11-apreldagi 01-14-511-sonli yig‘ilish bayoni va Davlat ekspertizasi xulosasiga asosan tumandagi 1 ta geografik obyektni nomlash bo‘yicha berilgan ekspertiza xulosasi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq deb hisoblanganligi inobatga olinsin hamda tuman bo‘yicha 1 ta geografik obyektning nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (X.Jo`raqulov), tuman statistika bo‘limi hamda Kadastrlar palatasi Forish tumani filiali (F.To`ychiyev)larga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Forish tumani Amir Temur nomli mahalla fuqarolar yig‘ini raisiga nomsiz ko‘chaga nom berilishi munosabati bilan aholi o‘rtasida tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Q.Nazarov) nom berilgan ko`chada yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (V.Shavqiyev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati, “Forish tongi” taxririyati (R.Karimov)ga mazkur qarorni tuman hokimligi rasmiy veb-sayti hamda “Forish tongi” gazetalarida e’lon qilish vazifasi topshirilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman kengashi raisi, Tuman hokimi **I.Matiyev**

Xalq deputatlari Forish tuman Kengashining
2022 yil 20 iyuldagi
VI-53-76-3-53-K/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Respublika Kadastr agentligi tomonidan ekspertiza berilgan Forish tumanidagi mavjud geografik obyekt

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
Ko`cha					
1.	Ko`cha	Amir Temur nomli mahalla fuqarolar yig‘ini, Ko`hnabozor aholi punkti	Nomsiz	Abdujabborov Abdurahmon jevachi	**Abdurahmon jevachi -** “Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.